

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

TEACHER`S ROLE IN SPEAKING ACTIVITIES.

Kattabekova Farangis and

Saxriddinova Farangiz

533-20 group students

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o`qituvchining nutq faoliyatidagi o`rni , nutq madaniyati va o`quvchilarning nutqini o`stirish haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: Nutq, nutq madaniyati ,til, faoliyat, o`qituvchi, nutq o`stirish, talablar.

Abstract :

This article provides information about the teacher`s role in speech activity, speech culture, and teaching student`s speech

Keywords:

Speech, speech culture, language, activity, teacher, speaking, requirements.

Insonning manaviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-marifiy rivojida ona tilining o'rni favqulotda muhimdir. Til milliy manaviyat, marifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda "Kishining zeb-u ziynati go'zalligi uning tilidadir" deyдилar. Shoh va shoir bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nutqining sodda, ravon va aniq bo'lishiga nutqiy madaniyatning yuqori bo'lishiga alohida e'tibor bergan.

Inson faoliyatida borligini bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg'arilgan bilimlar nainki qayd etiladi va saqlanadi balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Til millat ruhining ko'zgidir. Til va nutqni farqlash lozim. Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang- barang. Do'stlarning suhbat ham, so'zlayotgan kishining chaqirishi ham san'atkorning sahnadagi monologi ham, o'quvchining sinfdagi javobi ham nutqning bir ko'rinishidir. O'qituvchi nutqi adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'la olishi lozim. Adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi va o'quvchilari nutqini shevaga oid artikulyatsion baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamon qutilish oson kechmaydi. Buning oqibatida aytaylik buxorolik o' tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlilik o' tovushini asosan a tarzida yoki unga yaqin tarzda talaffuz qilishi, toshkentlik oshni - oshshi , yuzni-yuzzi,qorni-qorri tarzida aytilishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi. Ba'zan boshqa tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffuz tamoyiliga ko'ra

moslab aytish nuqsoni ko'zga tashlanadi. Yanvar-yinvar, Yaponiya-yiponiya, dekan-de'kan, fakultet-fakulitet. Yozma nutqni aynan harflab o'qish ham adabiy talaffuz me'yorlarining buzilishiga olib keladi.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari «Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish», «O'qish va nutq o'stirish», «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» deb nomlangan. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak.

O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi. 3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular: 1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda

so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi. O'qituvchi avvalo bolalarga nutq o'stirishni o'rgatishdan avval u birinchi o'rinda nutq madaniyatiga ega bo'lishi lozim. Notiq bolishi va nutq texnikasini bilishi o'qituvchi nutqiga qoyiladigan talablarni bilishi kerak. Shundan so'ng o'quvchilarning nutqini to'g'ri rivojlantira oladi. O'qituvchilar orasida tabiatan yoqimli, chiroyli ovozli kishilar ko'p. Lekin ovoz qanchalik yoqimli bo'lmasin, yillar davomida maxsus mashqlarsiz buziladi, eskiradi, qariydi. Har bir kishining ovozi esa o'ziga xos jarangdor, kuchli va qattiq va h.k bo'ladi. O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti –nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.
2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.
3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti –nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.
2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.
3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi.

Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi.

O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin.
3. Nutq aniq bo'lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin.
5. Nutq tushunarli bo'lsin.
6. Nutq ifodali bo'lsin.
7. Nutq to'g'ri bo'lsin.

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir necha talablar qo'yiladiki, pedagogic jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat. O'qituvchining nutqi ravon bo'lishi, o'qituvchining fikrlari bayoni aniq, tushunarli bo'lishi, nutq jarayonida qo'l, ko'z, yuz imo-ishoralardan foydalanishda ularning uzviy bog'liqligiga erishish, nutq orqali o'quvchilar ongi, qalbi, xatti-harakatiga pedagogik

ta'sir ko'rsatish , nutq tallafuzi orqali o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish , o'qituvchi nutqining talaffuzida axloqiy normalarning shakllangan bo'lishi, o'qituvchi shaxsiga xos va mos tarzda o'quvchilar bilan muloqotga kirishishi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga ovoz monotonidan ijobiy foydalanib muloqotga kirishishi , o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ularni tarbiyalab borish , ongi, xulqida insoniy fazilatlarni shakllantirish, axloqiy normalarni qaror toptirishi, muloqot jarayonida badiiy so'z sa'natiga qat'iy rioya qilishi, o'qituvchi notiqlik sa'natini egallab borishi va so'ngra muloqotga kirishishi , muntazam ravishda nutq talaffuzini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanib borishi, o'qituvchi o'zining nutq talaffuzida pauza, intonatsiyalardan oqilona foydalanishi, muloqot jarayonida o'qituvchi to'liq va to'g'ri fikrlay olishga o'rganishga bog'liq. Nutqiy faoliyat uchun muayyan axborotni uzatish va qabul qilishgina kifoya qilmaydi. Nutq faoliyati uchun nimani bayon qilish bilan birga, uni qanday bayon qilish bilan birga, uni qanday bayon qilish ham katta ahamiyatga ega. Axborotni qanday bayon qilish nutqiy madaniyatning o'rganish obyekti sanaladi.

O'qituvchi faoliyatida nutq madaniyati muhim rol o'ynaydi. Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir.

Nutq madaniyati fikrni mustaqil ravon go'zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashdir. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir.

Nutqning quyidagi kommunikativ sifatlari mavjud:

- nutqning to'g'riligi
- nutqning aniqligi
- nutqning tozaligi
- nutqning ta'sirchanligi
- nutqning boyligi va rang- barangligi
- nutqning qisqaligi
- nutqning ifodaliligi
- nutqning maqsadga muvofiqligi
- nutqning mantiqiyiligi

Pedagog nutq faoliyatida barchasiga amal qilish lozim.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki to'liq, mukammal shakllangan talab darajasidagi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzviy tabir joiz bo'lsa tamallaridandir. Jonli tovush nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqealashtirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Kasbga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'z o'ngida qusursiz va bilimli, qadrli ustoz

ko`rinishida ko`rinadi. Uni saqlash esa har bir ustozning o`ziga bog`liq. O`qituvchi har doim o`z ustida ishlashi, yangiliklardan boxabar bo`lishi innovatsiyalarga ijobiy qarashi o`zi ham novator bo`lishi maqsadga muvofiq. Kichik sinflarda uztoz nutqi ravon, jarangdor, turli g`arazli vositalardan holi bo`lishi, umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy tasir etadi. O`qituvchining ovozi, talaffuzi, dektsiyasi umuman tirik nutqi hamisha o`quvchilar uchun o`ziga xos etalon namuna vazifasini bajaradi. Shunday qilib o`qituvchi nutq faoliyatida nutq texnikasi, nutq madaniyatiga amal qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari Toshkent. "Sharq" 1999 256 b
2. Ona tili- davlat tili. Toshkent "Adolat" 2004 80 b
3. A.Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq "O`qituvchi" 1992
4. Kommenskiy Ya. A Buyuk didaktika- T O`qituvchi, 1975, 238 b
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya- T 2003, 68 b.